



O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ARABCHA O'ZLASHMALARNING QO'LLANILISHINI LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Qulmamatov D.S.

Filologiya fanlari doktori, O'zbekiston jahon tillari universiteti professori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek va rus tillarida mavjud bo'lgan ba'zi bir arabcha o'zlashmalarning lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq qilingan. Faktik materiallar asosida ularning tarkibi hamda o'rganilayotgan tillarda qo'llanilish xususiyatlari ko'rsatib berilgan.*

Аннотация. *В статье исследуются лингвокультурные особенности некоторых арабских адаптаций, содержащихся в узбекском и русском языках. На основе фактического материала показаны их состав и особенности употребления в изучаемых языках.*

Abstract. *The article examines the linguistic and cultural features of some Arabic adaptations contained in the Uzbek and Russian languages. Based on factual material, their composition and features of use in the languages being studied are shown.*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining oltita tillaridan biri hisoblangan arab tili boy tarixga ega. Jumladan, bizning darimizgacha etib kelgan arab tilida bitigan yozma yodgorliklar va ularning o'zbekcha hamda ruscha tarjimalari matnlarida qo'llanigan arabcha o'zlashmalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Hind-Ovropa tillar oilasiga mansub bo'lgan ushbu tilda muqaddas islom dini rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy (810–870), hadis ilmi namoyondalaridan biri, olti sahih kitoblardan birining sohibi va o'z davrining etuk olimlaridan sanalgan Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824–892), jahon madaniyatiga o'zining katta hissasini qo'shgan O'rta Osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (873–950), astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix, etnografiya kabi fanlarning bilag'oni xorazmlik olim Abu Rayxon Beruniy (973–1048), O'rta Osiyolik ulug' iste'dodli olim, faylasuf, shifokor, farmakolog, astranom, matematik, ximik, musiqashunos, huquqshunos, shoir Abu Ali ibn Sino (980–1037), buyuk mutafakkir, islom fikhining rivojlanishiga hissa qo'shgan, faylasuf alloma, shoir Burxoniddin Marg'iloniy (1123–1197) ijod qilishgan. Butun dunyoni lol qoldirgan ushbu allomalarimizning asarlaridan barcha musulmon olami foydalangan va purmano qator arab leksik birliklarni o'z nutqlarida mukammal qo'llaganlar.

Ovropa tillriga arabch so'zlaning aksariyati arablarning harbiy yurishlari paytida (7-asrdan 4-asr boshlarigacha) o'zlashgan. Arabcha leksik birliklar Yaqin va O'rta Sharq, jumladan Markaziy Osiyo, Markaziy Afrika va Janubiy-G'arbiy

mamlakatlarda mavjud bo'lgan tillarda hanuzgacha qo'llaniib kelinmoqda [qarang: 3]. Ba'zi Evropa tillarida arabcha o'zlashmalar ispan tili orqali kirib kelgan. Bu borada И.И. Огиенко o'zining fikrini quyidagicha bayon qilgan: "Arablar Pireney yarim oroliga juda erta, milodiy 711-yildan boshlab kelib o'rnashib olgan va bu yerda sakkiz asr davomida, ya'ni XV asr oxirigacha qolib ketgan. Arablar butun G'arbiy Yevropa madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan va Sharq hamda G'arb o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qilgan. Ularning fan olamini ko'plab sohalarida, masalan: matematika, astronomiya hamda kimyo va hokazolarda ta'sirini inkor etib bo'lmaydi, chunki o'sha paytda arablar fan vakillari bo'lgan. Va bularning barchasi, albatta, tilga ta'sir qilmasdan qolishi mumkin emas edi" [7, c. 36].

Arab tili va arabcha so'zlarning arab mintaqasidan tashqariga faol chiqish davrini Abbosiylar (750–1258) sulolasi boshqarish vaqtida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdoning rivojlangani bilan bog'lash mumkin. Bu o'rinda arabcha leksik birliklarni dunyoning qator tillariga kirib borishda turkiy tilni vositachilik qilganini e'tirof etish joyiz. И.И. Огиенко quyidagi fikrni bayon qilgan: "Arab so'zlari rus tiliga asosan turklar orqali kirgan, ammo to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilganlari ham mavjud. Ma'lumki, arablar nisbatan yuqori madaniyatga erishdilar, ulardan tsivilizatsiyalashgan dunyo raqamlarni oldi ..." [7, c. 36]. Arablarning tsivilizatsiyaviy ta'siri Kiev Rusigacha yetib bordi, birinchi navbatda, arablar va slavyanlar o'rtasidagi savdo aloqalari tufayli, slavyanlar o'sha davrdagi arab pul birligi(дирхем – درهم [diḥhamu])dan foydalanganlar [qarang: 8, c. 146 – 165.].

Arabcha leksemalarining rus tiliga o'zlashtirishida XVI–XVII asrlarlarda Buxoro va Xiva xonklarining Rossiya bilan diplomatik yozishmalri muhim rol o'ynagan. Bunga arab alifbosi bilan ushbu xonliklarning rasmiy – O'rta Osiyo turkiy (turkiy til) va forsiy (fors tili) tillarida yozilgan [bu haqda batafsil qarang: 5, c 68] xonlarning yorliqlari, elchilarning arznomalari va ulaning rus tezyozuvida bitilgan tarjimalari matnlarida qo'llanigan أمير [aʼmīru] – o'zb. *amir* 'Buxoroda va ba'zi musulmon mamlakatlarida: xonlik, podsholik unvoni hamda shu unvon egasi' [9, b. 78], rus. эмир 'титул мусульманского владетельного князя в некоторых странах Азии и Африки, титул правителя Афганистана (в 1826-1926 гг.) и дореволюционной Бухары, а также лицо, носящие такой титул' [4, c. 919], قماش [qumāshu] – o'zb. *qumosh* "mato, gazlama" [9, b. 377], rus. кумач 'хлопчатобумажная ярко-красная ткань' [4, c. 415], أطلس [aʼṭlasu] – o'zb. *atlas* "bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan mahalliy ipak gazlama" [9, b. 114], rus. атлас 'сорт шелковый ткани' [4, c. 98], مخمل [mukḥmalu] – o'zb. *barxit* 'duxoba, baxmal', rus. бархат 'плотная ткань с мягким гладким и густым ворсом' [4, c. 118] каби arabcha so'zlar misol bo'la oladi.

Yuqorida keltirilgan misollar shundan darak beradiki, arabcha o'zlashmalar o'zbek va rus tillarining qoidalariga muvofiq grafik, fonetik, struktur, semantik va grammatik nuqtai nazardan moslashgan. Masalan, arab tilida payg'ambarni bildiruvch أمير [aʼmīru] so'zi forsha زاده [zādə] 'tug'ilgan' so'zi bilan qo'shilgan



va اميرزاده [āmīrzādə] 'amirdan tug'ilgan', 'amirning o'g'li' ma'nolarida murakkab terminni yuzaga keltirgan. Keyinchalik أمير [aāmīruⁿ] so'zi qisqarib, مير [mīr] shaklini olgan. Forsha زاده [zādə] so'zidagi ز [zā] – birinchi bo'g'in ده [də] – ikkinchi bo'g'inning tushib qolishi hisobida ushbu o'zakka qo'shilgan. Natijasida yangi qisqartma arabcha-forscha ميرزا [mīrzā] so'zi yuzaga kelgan [bu haqda batafsil qarang: 6]. U quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan: "yozuvchi, kotib, buxgalter kotib; ayol tomonidan Payg'ambar avlodining qarindoshi (mirzo unvoni Forsda barcha shahzodalarga berilgan, – u bu holda ismdan keyin qo'yiladi ..., shuningdek, har bir savodli ziyoli kishiga berilgan, lekin u ism oldida turadi) [2, c. 493].

O'zbek va rus tillarining lug'at qatlamlarida boshqa arab tiliga oid leksemalar mavjud. Ulardan quyidagi leksik-semantik guruhlar e'tiborni o'ziga jalb qiladi:

1. Islom printsiplari va an'alarini tavsiflash va izohlashda qo'llaniladigan ekzotizmlar: o'zb. *Qur'on*, rus. *Коран* < قرآن [quṛānuⁿ], o'zb. *Alloh*, rus. *Аллах* < الله [aʔallāh], o'zb. *imom*, rus. *имам* < إمام [aīmāmuⁿ], o'zb. *masjid*, rus. *мечеть* < مسجد [mašjiduⁿ], o'zb. *Sunna*, rus. *Сунна* < سنة [sunātuⁿ], o'zb. *minora*, rus. *минарет* < منارة [manāratuⁿ], o'zb. *muftiy*, rus. *муфтий* < مفتي [muftiⁿ], o'zb. *haj*, rus. *хадж* < حج [hajuⁿ], o'zb. *hoji*, rus. *хадж* < حاج [hājuⁿ].

2. Ijtimoiy holatga tegishli leksemalar: o'zb. *admiral*, rus. *адмирал* < أميرال [aāmīrālūⁿ], o'zb. *vazir*, rus. *визирь* < وزير [wazīruⁿ], o'zb. *xalifa*, rus. *халиф* < خليفة [khalīfatuⁿ], o'zb. *shayx*, rus. *шейх* < شيخ [shayḡkhuⁿ].

3. O'simliklar, mevalar va ichimliklar nomlari: o'zb. *baqlajon*, rus. *баклажан* < بادنجان [bādiñjānuⁿ], o'zb. *kofe*, rus. *кофе* < قهوة [qahwaṭuⁿ], o'zb. *tut*, rus. *тут* < توت [tūtuⁿ], o'zb. *sirop*, o'zb. *cupon* < شراب [sharābuⁿ].

4. Ilmga taaluqli terminlar: o'zb. *shifr*, rus. *шифр* < شيفر [shifruⁿ].

Ko'rib chiqilgan materialga asoslanib, xulosa sifatida quyidagilarni ta'kidlash maqsadga muvofiq:

1. O'zbek va rus tillariga arabcha leksemalarning tarixan kirib kelishi Markaziy Osiyo hamda Evropada arablarning ko'p yillar o'rnashib olganligi, islom dini, ilm-fani va madaniyatini tarqalganligi bilan bog'liq.

2. Turkiy va slavyan tillari, jumladan o'zbek hamda rus, lug'at qatlamlarida ko'plab arabcha o'zlashmalar fonetik, semantik, morfologik nuqtai nazardan moslashib, qo'llanib kelinmoqda.

3. Rus tiliga arabch leksik birliklarning asosiy qismi Markaziy Osiyo xalqlari tillari orqali o'zlashgan.

4. O'bek va rus tillari leksik qatlamida mavjud bo'lgan ko'pgina arabcha so'larning tarixi tadqiq qilinmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аббасиды // <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/086/461.htm>

2. Гаффаров М.А. Персидско-русский словарь. – М.: Наука, 1976. – Т. II. – 962 с.

3. История арабского языка и его социолингвистическая характеристика // <http://files.school-collection.edu.ru/dlrstore/96860c84-e4e2-5b48-c3664fc844dae955/1008048A.htm>. 4. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: Эксмо, 2010. – 944 с.

4. Кулмаматов Д.С. Лингвотекстологическое исследование переводных дипломатических документов среднеазиатских дел Посольского приказа XVII в. // Вопросы языкознания. – М.: Российская академия наук, 2021. – № 2. – С. 66–75.

5. Кулмаматов Д. С. Мурза-мирза. – Русская речь, 2014. – М.: Наука. – № 5. – С. 118–121.

6. Огиенко И.И. Иноземные элементы в русском языке: история проникновения заимствованных слов в русский язык. – Киев: Тип. В. П.

7. Бондаренко и П.Ф. Гнездовского, 1915. – 136 с.

8. Рогачевская М.А. Русские деньги // ЭКО, 2006. – № 7. – С. 146–165.

9. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – Birinch jild. – 680 b.